

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ABDULLA ORIPOV POETIK TAFAKKURIDA TIL VA MADANIYAT UYG'UNLIGI

Narziyeva Ma'mura

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti, dotsent.

e-mail: mamuranarziyeva164@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-0542-8826>

Annotatsiya.

Maqolada Abdulla Oripov poetik tafakkurida til va madaniyat uyg'unligini ta'minlovchi badiiy-lisoniy mexanizmlar tahlil qilinadi. Xalqona nutq ohangi, metafora, o'xshatish, parallelizm, takror, ritorik so'roq, frazeologik model va folklor janrlariga xos hikoyalash usullarining madaniy mazmun hosil qilishdagi roli ochib beriladi. "Momo oftob", "Bahor", "Munojotni tinglab", "Hangoma", "Yurtim shamoli" kabi she'rlar asosida oddiy leksik birlikning poetik kontekstda milliy ramzga aylanish jarayoni izohlanadi. Natijalar shoirida til madaniyatni tashuvchi tashqi vosita emas, balki uni qayta yaratadigan faol poetik kuch ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: poetik tafakkur, til va madaniyat, xalqona nutq, metafora, folklor, poetik sintaksis, ramz, lingvopoetika.

ГАРМОНИЯ ЯЗЫКА И КУЛЬТУРЫ В ПОЭТИЧЕСКОМ МЫШЛЕНИИ АБДУЛЛЫ ОРИПОВА

Нарзиева Маъмура

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, Институт языков и культуры народов Центральной Азии, доцент.

Аннотация.

В статье анализируются художественно-языковые механизмы, обеспечивающие гармонию языка и культуры в поэтическом мышлении Абдуллы Орипова. Раскрывается роль народно-разговорной интонации, метафоры, сравнения, параллелизма, повтора, риторического вопроса, фразеологических моделей и способов повествования, характерных для фольклорных жанров, в формировании культурного содержания. На материале таких стихотворений, как «Momo oftob», «Bahor», «Munojotni tinglab», «Hangoma», «Yurtim shamoli», рассматривается процесс превращения обычной лексической единицы в национальный символ в поэтическом контексте. Результаты исследования показывают, что в поэзии автора язык выступает не внешним средством передачи культуры, а активной поэтической силой, способной воссоздавать её.

Ключевые слова: поэтическое мышление, язык и культура, народная речь, метафора, фольклор, поэтический синтаксис, символ, лингвopoетика.

THE HARMONY OF LANGUAGE AND CULTURE IN ABDULLA ORIPOV'S POETIC THOUGHT

Narziyeva Ma'mura

Sharof Rashidov Samarkand State University, Institute of Languages and Culture of the Peoples of Central Asia, Associate Professor.

Abstract.

The article analyzes the artistic and linguistic mechanisms that ensure the harmony of language and culture in Abdulla Oripov's poetic thought. It examines the role of folk speech intonation, metaphor, simile, parallelism, repetition, rhetorical questions, phraseological models, and narrative techniques characteristic of folklore genres in constructing cultural meaning. Drawing on such poems as "Momo oftob," "Bahor," "Munojotni tinglab," "Hangoma," and "Yurtim shamoli," the study explains how an ordinary lexical unit is transformed into a national symbol within a poetic context. The findings demonstrate that in Oripov's poetry, language functions not as an external medium for transmitting culture but as an active poetic force that recreates it.

Keywords: poetic thought, language and culture, folk speech, metaphor, folklore, poetic syntax, symbol, linguopoetics.

Kirish. Badiiy matnda til va madaniyat o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Shoir xalqning madaniy tajribasini shunchaki bayon etmaydi, balki uni tovush, so'z ma'nosi, sintaktik qurilish, ritm va ohang vositasida poetik mazmunga aylantiradi. Shu sababli so'zning madaniy mohiyati faqat uning lug'aviy ma'nosi bilan belgilanmaydi. U so'zning boshqa obrazlar bilan munosabati, matndagi o'rni, takrorlanish xususiyati, intonatsiyasi hamda ifodalagan bahosi orqali yanada boyiydi. Demak, poetik tafakkurni tadqiq etishda til va madaniyatni alohida hodisalar sifatida emas, badiiy ma'noni birgalikda shakllantiruvchi yaxlit tizim sifatida o'rganish lozim [2; 5].

Abdulla Oripov she'riyatining xalqona va ayni paytda falsafiy ta'siri ana shu uyg'unlik bilan izohlanadi. Shoir oddiy nutqda faol bo'lgan *ona, shamol, oftob, bahor, yo'l, tuproq, qush, ko'ngil* kabi birliklarni poetik kompozitsiyada milliy xotira, vaqt, Vatan va axloqiy tanlov ramziga aylantiradi. "Hangoma"dagi xalq hikoyachiligi, "Momo oftob"dagi mifopoetik personifikatsiya, "Munojotni tinglab"dagi musiqiy-madaniy xotira, "Yurtim shamoli"dagi makon va his birligi buning turli ko'rinishlaridir [5; 2].

Maqolaning maqsadi A. Oripov poetik tafakkurida til va madaniyat uyg'unligini yuzaga keltiruvchi lisoniy mexanizmlarni aniqlashdir. Bunda metafora va o'xshatish, xalqona frazeologik model, takror va parallelizm, dialogik sintaksis, folklor janrlariga xos hikoyalash, tovush-ritm tashkiloti hamda ramziy nominatsiya tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor madaniy mazmunning "nima" ekanidan tashqari, uning "qanday" lisoniy shaklda badiiy tajribaga aylantirilganiga qaratiladi.

Asosiy qism. Metafora til va madaniyat uyg'unligining yetakchi vositasidir. A. Oripov matnida Vatan ona, shamol elchi yoki nafas, bahor umid, yo'l taqdir, quyosh adolat va hayot sifatida talqin qilinadi. Bu ko'chimlarning ayrimlari umumiy poetik an'anaga mansub bo'lsa-da, ularning bir matnda tarix, ona tili va xalq taqdiri bilan birikishi milliy mazmunni kuchaytiradi. Metafora mavhum g'oyani ko'rinadigan predmetga aylantiradi, shu bilan birga predmetni jamoaviy tajriba bilan bog'laydi. Natijada o'quvchi madaniy tushunchani mantiqiy ta'rif emas, hissiy obraz orqali idrok etadi.

"Momo oftob" tipidagi nominatsiya xalqona qarindoshlik modeli bilan tabiat hodisasini birlashtiradi. "Momo" leksemasi yoshi ulug' ayol, mehr, tajriba va avlodlar davomiyligi semalarini olib keladi; "oftob" esa issiqlik, hayot va yorug'likni anglatadi. Ikki birlikning birikishi quyoshni uzoq kosmik obyekt emas, oilaviy olamga yaqin va madaniy jihatdan tanish timsolga aylantiradi. Personifikatsiya shu tarzda nafaqat badiiy jonlantirish, balki tabiatni qarindoshlik munosabatlari orqali idrok etadigan milliy tasavvur modelini yaratadi:

*Har o'tgan zum uchun shukrona aytib,
Senga talpinurman, ey momo oftob!*
("Momo oftob")

O'xshatishlarda ham madaniy tajriba mezon vazifasini bajaradi. Shoir noma'lum yoki murakkab kechinmani o'quvchiga tanish tabiat, mehnat, uy-ro'zg'or, yo'l va tarixiy obraz bilan qiyoslaydi. O'xshatishning kuchi ikki predmetning tashqi o'xshashligida emas, ularni birlashtirgan baholovchi belgi va madaniy assotsiatsiyada namoyon bo'ladi. A. Alyilmaz A. Oripov she'riyatidagi o'xshatishlar badiiy ta'sirni kuchaytirishini qayd etgan [1]. Lingvokulturologik nuqtayi nazardan esa qiyos etaloni muhim: aynan etalon jamoa uchun qaysi predmet yorqin, qadrli yoki tanish ekanini ko'rsatadi.

Abdulla Oripovning satirik va falsafiy asarlarida folklorga xos hikoyalash usuli til va milliy madaniyat uyg'unligini ta'minlaydi. "Hangoma", "Tulki falsafasi", "Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi" kabi asarlarda voqealar sodda va xalqona tarzda bayon qilinib, xarakterli personajlar hamda kutilmagan yakun vositasida muhim hayotiy xulosa chiqariladi. Bunday qurilish latifa, masal va xalq qissalarining poetik xususiyatlarini eslatadi. Shoir folklor an'analari aynan takrorlamaydi, balki ulardan zamonaviy jamiyatdagi loqaydlik, soxtalik, ma'naviy qashshoqlik hamda nazariy bilim bilan hayotiy tajriba o'rtasidagi nomuvofiqlikni ochib berishda foydalanadi. Natijada xalqona hikoyalash shakli zamonaviy ijtimoiy muammolarni baholash vositasiga aylanadi [10].

Abdulla Oripov she'riyatida xalqona frazeologizmlar va maqollarga xos sintaktik qurilmalar muallif fikrining qisqa, lo'nda va ta'sirchan ifodalanishini ta'minlaydi. Shoir tayyor maqolni aynan takrorlashdan ko'ra, xalq hikmatiga xos tuzilish, qarama-qarshilik, parallelizm va umumlashtirish usullaridan foydalanadi.

"Dorboz" she'ridagi:
*Biz-chi, eh, ba'zi bir ko'zi ochiqlar,
Eplab yurolmaymiz katta yo'lda ham.*
("Dorboz")

Mazkur misralarda *ko'zi ochiq* frazeologizmi ziyrak, hushyor va voqelikni angelaydigan inson ma'nosini ifodalaydi. Biroq shoir bu iborani ko'zlarini yumib dor ustida yurgan dorboz obraziga qarama-qarshi qo'yadi. *Katta yo'l* birikmasi ham faqat makonni emas, balki insonning hayot yo'lini anglatadi. Ko'zini yumgan dorbozning ingichka arqonda yurishi bilan "ko'zi ochiq" kishilarning katta yo'lda yurolmasligi o'rtasidagi antiteza maqolga xos ixcham xulosani yuzaga keltiradi. Misralarda jismoniy ko'rish bilan ma'naviy hushyorlik bir-biriga zid qo'yilgan.

"Ayol" she'rida esa:
*O'zini ming bitta bozordan olib,
Ming bitta bozorga solganlar,*

tarzidagi parallel qurilish qo'llangan. *Bozorga solmoq* birikmasi bu o'rinda insonning o'z qadrini manfaat yo'lida pasaytirishi ma'nosini bildiradi. *Ming bitta* sonining takrorlanishi mubolag'ani kuchaytiradi, *olib — solganlar* fe'llarining qarama-qarshiligi esa fikrga maqolga xos ohang beradi. Ushbu ifoda sodiq beva obrazi bilan ma'naviy jihatdan beqaror kishilarni qarama-qarshi qo'yib, vafo va sadoqatni yuksak axloqiy mezon sifatida tasdiqlaydi.

"Tilla baliqcha" she'ridagi "Bir ko'lmak hovuz deb bilar dunyoni" misrasi ham xalq hikmatiga xos umumlashtiruvchi xususiyatga ega. *Ko'lmak hovuz* tor muhit, cheklangan dunyoqarash va ma'naviy mahdudlik ramziga aylantirilgan. *Bilar* fe'llining umumlashtiruvchi hozirgi zamonda qo'llanishi fikrni muayyan baliqcha haqidagi tasvirdan chiqarib, hayotiy qonuniyat darajasiga ko'taradi. Natijada misra o'zining kichik muhitini butun dunyo deb biladigan kishilar haqidagi hikmatli hukm sifatida anglashiladi.

"Ajrim" she'rining yakunidagi "Sen ham bor narsani axtar-da axir" misrasi paradoksal mazmuni bilan maqolga

yaqin turadi. O'g'lon dunyodan chin do'stlik va vafoni izlaydi, ota esa uning izlayotgan qadriyatlari hayotda tobora kamyob bo'lib qolganiga ishora qiladi. Buyruq maylidagi *axtar* fe'li va xalqona *-da axir* birikmasi ota nutqiga sodda, ammo keskin hukm ohangini beradi. Shu tariqa ota obrazi xalq donishmandligi va hayotiy tajribaning ifodachisiga aylanadi.

"Ota duosi" she'ridagi "Yonimda yursang bas sog'-u salomat" misrasida *sog'-u salomat* juft birligi xalq nutqidagi duo va ezgu tilak formulasini ifodalaydi. *Bas* yuklamasi otaning mol-dunyo yoki boshqa manfaatni emas, farzandining sog'ligi va yaqinligini qadrlashini ta'kidlaydi. Misraning sodda sintaktik tuzilishi unga xalq hikmatiga xos lo'ndalik bag'ishlaydi.

Demak, Abdulla Oripov frazeologik birliklar, parallel fe'l shakllari, antiteza, takror va umumlashtiruvchi hozirgi zamon vositasida individual poetik fikrni xalq hikmatiga yaqinlashtiradi. Natijada misralar muallifning shaxsiy mulohazasi bo'lib qolmay, jamoaviy hayotiy tajribani ifodalovchi maqolsimon hukm darajasiga ko'tariladi.

Abdulla Oripov she'riyatida takror muayyan so'z yoki birikmaning ma'nosini kuchaytirish bilangina cheklanmaydi. U poetik matndagi asosiy qadriyatni belgilab, uni o'quvchi xotirasida saqlanadigan ritmik formulaga aylantiradi. Masalan, "O'zbekiston" qasidasining har bir bandi "O'zbekiston, Vatanim manim" misrasi bilan yakunlanadi. Mazkur takror bandlarda tasvirlangan tarix, tabiat, ajdodlar va milliy g'urur tushunchalarini yagona semantik markaz — Vatan konsepti atrofida birlashtiradi. *Vatanim* so'zidagi birinchi shaxs egalik qo'shimchasi Vatan bilan lirik qahramon o'rtasidagi shaxsiy munosabatni bildirsa, *manim* shakli xalqona va tantanavor ohangni kuchaytiradi. Misraning band oxirida muntazam qaytishi esa uni qo'shiq naqoratiga yaqinlashtirib, og'zaki ijro va yodda saqlashni osonlashtiradi.

"Yurtim shamoli" she'ridagi "O, yurtim shamoli, yurtim shamoli" takrori ham shunday vazifani bajaradi. *Yurtim shamoli* birikmasining ikki marta qo'llanishi oddiy tabiat hodisasini milliy-madaniy obrazga aylantiradi. Shamol lirik qahramon uchun ona yurtning nafasi, ovozi va xabarini yetkazuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. *O* undovi esa murojaatga sog'inch va hayajon ohangini beradi. Natijada takror yurtga muhabbatni ifodalovchi ritmik formulaga aylanadi.

Parallelizmning muhim namunasi "Munojot"ni tinglab..." she'rida uchraydi:

Sen beshik emassan, dorsan, tabiat,

Sen ona emassan, jallodsan, dunyo!

Har ikki misra bir xil sintaktik model — *sen + beshik + emassan + dor + -san* asosida tuzilgan. Birinchi misradagi *beshik* — *dor*, ikkinchisidagi *ona* — *jallod* qarama-qarshiligi tabiat va dunyoni yagona axloqiy mezon asosida baholashga xizmat qiladi. Beshik va ona hayot, mehr hamda himoyani anglatrsa, *dor* va *jallod* o'lim, zulm hamda shafqatsizlikni bildiradi. Parallel qurilish ushbu zidliklarni ritmik va mazmuniy jihatdan tenglashtirib, shoirning individual iztirobini insoniyat taqdiri haqidagi umumlashma hukm darajasiga ko'taradi.

Abdulla Oripov she'riyatida ritorik so'roq tayyor javobni talab qilmaydi. U o'quvchini muayyan axloqiy yoki ruhiy masala ustida fikrlashga undaydi. "Sen bahorni sog'inmadingmi?" she'rida har bir band "Sen bahorni sog'inmadingmi?" savoli bilan yakunlanadi. Grammatik jihatdan savol muayyan *senga* qaratilgan bo'lsa-da, uning adresati kengayib, o'quvchini ham qamrab oladi. Bahor bu o'rinda faqat fasl emas, balki muhabbat, visol, yoshlik va ruhiy yangilanish ramzidir.

"Onajon" she'ridagi "Nahot, axir so'nggi dam ham farzandingni o'ylasang" savoli ona va farzand o'rtasidagi muloqotni ichki dialog shaklida yuzaga chiqaradi. *Onajon* murojaatida qarindoshlik ma'nosi bilan birga mehr, hurmat va armon mujassamlashgan. Ona hayotining so'nggi daqiqalarida ham farzandining kelajagini o'ylaydi. Ritorik savol esa lirik qahramonning hayrati, iztirobi va ona oldidagi ma'naviy qarzdorligini ifodalaydi.

Umuman olganda, Abdulla Oripov she'riyatida takror, parallelizm, ritorik so'roq va murojaat oddiy uslubiy bezak emas. Takror qadriyatni ritmik xotiraga aylantiradi, parallelizm hodisalarni yagona axloqiy mezonda baholaydi, ritorik savol esa o'quvchini suhbat ishtirokchisiga aylantiradi.

Til va madaniyatning o'zaro uyg'unligi Abdulla Oripov she'riyatida xalqona hamda kitobiy leksikaning muvozanatli qo'llanishida ham namoyon bo'ladi. Shoir *ona, yer, non, yo'l, shamol* kabi kundalik nutqda faol ishlatiladigan so'zlarni *vijdon, adolat, abadiyat, tafakkur* singari mavhum tushunchalar bilan bir semantik maydonda birlashtiradi. Natijada falsafiy mazmun xalqona tafakkurdan uzoqlashmaydi, oddiy predmet va hodisalar esa muhim ma'naviy-axloqiy g'oyalarni ifodalovchi poetik timsollarga aylanadi. Shoir badiiy murakkablikni sun'iy terminlar vositasida emas, balki o'quvchiga tanish obrazlar o'rtasida yangi va kutilmagan munosabatlarni yuzaga keltirish orqali hosil qiladi. Shu xususiyat uning she'rlarini, bir tomondan, keng o'quvchilar ommasiga tushunarli qilsa, ikkinchi tomondan, semantik jihatdan ko'p qatlamli va chuqur tahlilga imkon beradigan matnga aylantiradi.

Xulosa. Abdulla Oripov poetik tafakkurida til va madaniyat metafora, o'xshatish, folklorga xos hikoyalash, paremiologik qoliplar, takror, sintaktik parallelizm, ritorik so'roq hamda murojaat vositalari orqali o'zaro birlashadi. Shoir ijodida oddiy leksik birlik muayyan kontekstda tarixiy xotira, milliy makon, xalqona dunyoqarash yoki axloqiy qadriyatning ramzi darajasiga ko'tariladi. Demak, til shoir uchun madaniy mazmunni shunchaki saqlaydigan va uzatadigan neytral vosita emas. U milliy-madaniy tajribani individual badiiy idrok asosida qayta shakllantiradigan faol poetik kuch sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aliyilmaz K. Abdulla Oripov she'riyatida o'xshatish san'ati // Til va adabiyot ta'limi. – 2006. – № 2. – B. 42–47. – URL: [O'zbekiston matbuoti solnomasi. 2006](#)
2. Halliday M. A. K., Hasan R. Language, Context, and Text: Aspects of Language in a Social-Semiotic Perspective. – Geelong, Victoria: Deakin University Press, 1985. – 126 p. – ISBN 0-7300-0307-8. – URL:

WorldCat bibliografik yozuvi

3. Лотман Ю. М. Семиосфера: Культура и взрыв. Внутри мыслящих миров. Статьи. Исследования. Заметки. – Санкт-Петербург: Искусство-СПБ, 2000. – 704 с. – ISBN 5-210-01488-6. – URL: [Ю. М. Лотман — Семиосфера](#)
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – № 5. – B. 3–16. – URL: [Bibliografik tasdiq](#)
5. Oripov A. Yillar armoni: she'rlar va dostonlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – 568 b. – URL: [Yillar armoni — bibliografik ma'lumot](#)
6. Oripov A. Saylanma: she'rlar, turkumlar va doston. – Toshkent: Sharq, 1996. – 464 b., 1 varaq portret. – URL: [Abdulla Oripov: biobibliografiya](#)
7. Oripov A. Tanlangan asarlar: to'rt jildlik. 1-jild: She'rlar va dostonlar / to'plab nashrga tayyorlovchi, so'ngso'z va izohlar muallifi D. Begimqulov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. – 432 b. – URL: [Abdulla Oripov: biobibliografiya](#)
8. Abdulla Oripov: biobibliografiya / tuzuvchilar G. Rahmatullayeva, X. Mamatraimova; muharrir D. Begimqulov. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011. – 208 b. – URL: [Biobibliografiyaning to'liq elektron nusxasi](#)
9. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – 136 b. – URL: [O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti](#)
10. Hamdamov A. Abdulla Oripovning "Hangoma" she'rida xalqona ruh // O'zbek tili va adabiyoti. – 2003. – № 4. – B. 65–67. – URL: [Abdulla Oripov: biobibliografiya](#)
11. Shodmonova D. E. Abdulla Oripov she'riyatining lingvopoetik aspektlari // Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. – 2009. – № 3. – B. 118–120. – URL: [Abdulla Oripov: biobibliografiya](#)